

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

 ILMIY AXBOROT

M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari..... 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari..... 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi..... 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar..... 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari..... 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

**BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**
(tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida)

**МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТРУДОВОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**
(на примере конструирования и моделирования швейных изделий)

**METHODS OF DEVELOPING THE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF LABOR
EDUCATION**
(using the example of designing and modeling garments)

¹Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna

¹Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

²Usarova Shoiraxon

²Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ta'lim sohasidagi globalashuv jarayonida o'quvchilar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklardan habardor bo'lib borayotganligini inobatga olsak, fan o'qituvchisi ham o'z dars mavzusini muntazam ravishda yangiliklar bilan boyitib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning o'qitish metodlari, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning maxsus kompetensiyasini rivojlantirishda «Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish» fanining roli va ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация

В условиях глобализации в сфере образования, учитывая тот факт, что учащиеся узнают о новостях через средства массовой информации и социальные сети, учителю естественных наук целесообразно регулярно обогащать тему своего урока новостями. В данной статье обсуждаются методика преподавания конструирования и моделирования швейных материалов, роль и значение науки «Конструирование и моделирование швейных материалов», роль в развитии специальной компетентности будущих учителей технологического образования.

Abstract

In the context of globalization in education, given the fact that students learn about news through the media and social networks, it is advisable for a science teacher to regularly enrich the topic of his lesson with news. This article discusses the methodology for teaching the design and modeling of sewing materials, the role and significance of the science "Design and modeling of sewing materials", the role in the development of special competence of future teachers of technological education.

Kalit so'zlar: model, konstruksiyalash, modellashtirish, texnologiya, kreativlik, dizaynerlik kompetensiyasi, badiiy loyihalash, loyiha, ijod, tafakkur, intuitsiya

Ключевые слова: модель, конструкция, моделирование, технология, творчество, дизайн, нерская компетентность, художественный замысел, проект, мышление, интуиция

Key words: model, construction, modeling, technology, creativity, designer's competence, godly design, project, creativity, thinking, intuition.

KIRISH

Maxsus fanlar tarkibiga kiruvchi "Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish" fani tikuvchilik faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tikuv buyumlari bo'yicha moxir konstruktor bir vaqtning o'zida bir nechta sifatlar egasi: rassom, kreativ fikrlovchi, o'z g'oyalarini eskizda, gazlamada amalga oshirishga qodir, shuningdek, kiyim orqali odamlarga o'zlarining ichki fazilatlarini namoyon etishga yordam beradigan psixolog, hamda ma'lum darajada rejissyor bo'lib, mijozga har safar yangi obraz, yangi rol taklif qila oluvchi bo'lishi lozim.

АДАБИЙОТЛАР ТАХЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Tikuvchilik – badiiy loyihalashning bir turi bo'lib, buyumlar muhitini qulaylik, tejamkorlik va go'zallik tamoyillarini birlashtirgan holda yaratishga xizmat qiladi. Dizayner esa – kuchli rassom va loyihachidir. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash bilan shug'ullanadigan kishi o'z faoliyatining pirovardida chiroyli buyum yaratishga harakat qilar ekan, birinchi navbatda, mazkur buyumning

estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilishi lozim. Dizaynerlikning maqsadi va natijasi iste'mol buyumlarini yaratish bo'yicha faoliyat shakllaridan biri bo'lib, buning natijasi sifatida aynan shu iste'mol buyumlari namoyon bo'ladi. Har qanday badiiy asar, shu jumladan, badiiy-loyihalash faoliyati mahsulotlari ham iste'molchiga yaratuvchilar singdirgan ma'naviy axborotni uzatadi, rassom dizayner bilan iste'molchi o'rtasida o'ziga xos muloqotni vujudga keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Natijada yaratilgan asar (buyum) o'z "tiliga" ega, o'zi haqida "so'zlovchi" mahsulot bo'lib qoladi. Shunday qilib dizayn (badiiy loyihalash)ga nafaqat texnik va badiiy-estetik jihatlariga ko'ra, balki insonlarning ijtimoiy hayotda o'zaro muloqotini tashkillashtirishning muhim vositalaridan biri sifatida uning kommunikativ jihatlariga ko'ra ham qarash zarur. Badiiy loyihalashtirishning maqsadi – iste'mol buyumlarining mujassamlashgan tuzilishi va shakli orqali manfaatdorlik hamda badiiy vazifalarni amalga oshirishdir. Bunday tuzilma bifunksional tuzilma deb ataladi. Dizayn mahsulotlari ularning mohiyati va funksional tuzilmasidan, mahsulotning mohiyati esa, o'z navbatida manfaatdor va badiiy mazmunning yig'indisidan iborat. Talaba yangi badiiy asar – modelni yaratuvchi, ya'ni rassom-dizayner bo'lib, texnologik jihozlar va materiallardan foydalanib, dizayn mahsuloti – modelni yaratadi.

Texnik loyihalashda mo'ljallangan vazifaga moslik va tejamkorlik jihatlarini bo'lib, bunda konstruksiyaning qulayligini ko'zlab ish ko'rish nazarda tutiladi, badiiy loyihalashda esa ifodalilik va estetiklik, ularning birikib ketishi orqali badiiy shakl ta'minlanadi. Shuning uchun ham dars jarayonida talabalarga avval tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish jarayonida buyumning asos chizmasi loyihasidan ma'lumot berilishi, undan so'ng buyumni texnik loyihalash, ya'ni modellashtirish o'rgatilishi maqsadga muvofiq. Bunda, albatta, tikuvchilik buyumining vazifasiga, model harajatining tejamkorligiga, buyumni loyihalashning maqbul usulidan foydalanilishga e'tibor berilishi, badiiy loyihalashda esa model nafosat nuqtai nazaridan ta'minlanib, ko'zda tutilgan badiiy shakl yaratiladi. Muayyan modelni yaratishda uning funktsionalligi (1-rasm), ya'ni kiyilganda insonlar o'zlarini erkin tutishlari, bemaolol harakat qila olishlari zarurligi, ularning modeldan manfaatdorligi, bu kiyim qomatning barcha kamchiliklarini yashirgan holatda go'zallashtirib ko'rsatishi, model yaratishda tejamkorlikka rioya qilinganligi, unga sarflanadigan xarajatlar ko'p bo'lmasligi, modelning badiiyligi – zamonaviyligi, nafosatlilik hamda qo'llanilgan bezaklarning ifodaliligiga e'tibor berish lozimligi talabalarga mashg'ulotlar jarayonida ta'kidlab tutiladi. Shunda ishlab chiqarilgan mahsulot – model, iste'molchi talabini qondiradi.



1-rasm mahsulotga qo'yilgan talablar

Kiyimning modelga xos xususiyatlari, ya'ni vitachkalar, koketkalar, bo'rtma choklarining holati; bo'ksa, bel, etak, bort, taqilma chiziqlari; cho'ntak, yoqa, burma chiziqlari tegishli detallar konstruksiyasi asosining chizmasiga ko'chiriladi. Model chiziqlarining barchasini konstruksiya asosining chizmasida xuddi uning rasmidagidek joylashtirish kerak. Tanlangan modelga binoan modeldagi detalning yangi shakli detal andozani shartli bo'laklarga bo'lib, keyin u bo'laklarni surib, tipik vitochkalarni berkitish va ularni yangi holatga ko'chirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Ayollar kiyimining yangi modelini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni kiyim kompozitsiyasi va uning badiiy obraziga qaratish lozim. Kiyim kompozitsiyasi deganda, kiyimni tashkil qiluvchi barcha

elementlar, kiyimning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqilishi tushuniladi. Kiyimning mazmuni uning vazifasiga qarab belgilanadi. Ya'ni kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini ochib berishga xizmat qilishi kerak. Tikuvchilik buyumini loyihalash va modellashtirish jarayonida talabadan kiyim kompozitsiyasini aniq tasavvur qilish talab etiladi.

XULOSA

Model yaratganda, nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki bu modelni tikish texnologiyasiga ham e'tibor berish kerak. Hozirgi kunda yengil sanoatda ish unumdorligini oshirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga va inson qo'l mehnatini kamaytirishga qaratilgan, avtomatlashtirilgan zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Texnologik jarayonlarni to'g'ri tashkil qilish va boshqarish orqali buyumning zamonaviyligi, estetikligi hamda dizayni saqlanadi. Shu jarayonlarni bajarish tartibini talabalarga yetkazishda an'anaviy va noan'anaviy dars berish usullaridan foydalaniladi. Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarga har tomonlama chuqur bilim berish, ularda izlanuvchanlik, intiluvchanlik, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, har qanday sharoitda muammolar yechimini topishga o'rgatish oldimizda turgan asosiy maqsad va vazifalardandir.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 No. PF-5847 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030": <https://lex.uz>
2. Abdullayeva Q.M. Basics of design and modeling of sewing items. - T.: TDPU.2003.
3. Sh. Sharipov, N. Muslimov. Technical creativity and design. Study guide. Tashkent.2010.
4. G.T. Hojkarimova "Main methods of designing and modeling clothes" Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomiy. Scientific-theoretical and methodical journal. No. 1- 2023
5. [Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся](#).А Авазбоев, Г Хожикаримова Вестник науки 5 (6 (15)), 150-153
6. Selection of lesson form, method and tools in innovative education. R Maqsudov, S M Otajonov, MM Ahmedov, ShSh Shukhratov, Study guide. Far.